JALOLIDDIN RUMIY MEROSIDA MUROSACHILIK VA BIRDAMLIK MADANIYATI

Tuychiboyev Sodikjon Saburovich

Namangan davlat universiteti

katta o’qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur ilmiy maqolada buyuk mutafakkir Jaloliddin Rumiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari tizimida ijtimoiy murosa madaniyati fenomenining mazmun-mohiyati, insonlar o‘rtasidagi hamjihatlik hamda o‘zaro birdamlik prinsiplari atroflicha yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotda mutasavvifning shaxs komilligi va ma’naviy barkamollikka erishuviga oid qarashlari ilmiy-nazariy jihatdan chuqur tahlil etiladi.*

Kalit so‘zlar: *birdamlik. ijtimoiy murosa, nizoli vaziyat, tinchlik, insonparvarlik, hamjihatlik.*

Insoniyat sivilizatsiyasining taraqqiyoti, ayniqsa, barcha sohalar o‘zaro chambarchas bog‘langan hozirgi zamonaviy dunyo sharoitida ijtimoiy murosa madaniyati tushunchasining asl mohiyatini anglash hamda uni keng jamoatchilikka yetkazishni dolzarb masalalardan biriga aylantirmoqda. Jamiyatda va shaxslararo munosabatlarda muayyan ziddiyatlar hamda kelishmovchiliklarning yuzaga kelishi tabiiy va obektiv jarayondir.

XXI asrda murakkablashib borayotgan ijtimoiy nizolar va muammoli vaziyatlarni oqilona hal etishda Sharq mutafakkirlarining boy ijtimoiy-falsafiy merosiga tayanish alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, Mavlono Jaloliddin Rumiyning ma’naviy-falsafiy qarashlarida ijtimoiy murosa va hamjihatlik madaniyatiga oid konstruktiv g‘oyalar markaziy o‘rinlardan birini egallaydi.

Jadal sur’atlar bilan kechayotgan zamonaviy globallashuv davrida ham ushbu masalalar o‘zining hayotiy va ilmiy qimmatini saqlab qolmoqda. Zero, shaxsning ma’naviy kamolotga erishuvi hamda komillik darajasiga ko‘tarilishi bevosita bag‘rikenglik va o‘zaro totuvlik tamoyillariga asoslanadi.

Umumbashariy qadriyatlarni e’zozlash, millatlararo hamjihatlikni ta’minlash hamda bag‘rikenglik muhitini mustahkamlash bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasining ustuvor davlat siyosati va bosh g‘oyalaridan biri hisoblanadi.

Musulmon Sharqining buyuk mutafakkiri Jaloliddin Rumiyning ma’naviy merosi hamda tasavvufiy-irfoniy ta’limoti asrlar osha insoniyatni yuksak ma’naviyat, teran tafakkur, o‘zaro totuvlik va diniy bag‘rikenglikka da’vat etib kelmoqda. Mavlono Rumiy ilgari surgan ezgu g‘oyalar bugungi kunda ham o‘zining hayotiy va amaliy qimmatini yo‘qotgani yo‘q.

Mutakkir asarlarining tub mohiyati tahlil qilinsa, ularning markazida inson omili hamda jamiyatda tinch-totuv va farovon umr kechirish tamoyillari yotgani ko‘rinadi. Aynan mana shunday komillik va insonparvarlikka yo‘naltirilgan ma’naviy da’vat Rumiy merosining barcha xalqlar va millatlar uchun birdek qadrli hamda ardoqli bo‘lishini ta’minlab kelmoqda. Zero, Bake Muan aytganidek: “Rumiy hayotining o‘zi ajoyib ramziy ma’noga ega: afg’onlar, forsiygo‘ylar, turkiylarni birlashtirish bilan birga ushbu xalqlarni boshqa xalqlar bilan birlashtirishga muvaffaq bo‘lgan zotdir. Qanday qilib deysizmi? Axir ularning barchasi Rumiy bizniki degan fikrdadirlar” [1].

Mutafakkirning bag‘rikenglik hamda hamjihatlikka yo‘naltirilgan qarashlari axborot oqimi va globallashuv jadal tus olgan hozirgi davrda ham o‘zining yuksak dolzarbligini saqlab qolmoqda. Rumiyning vatanparvarlik, insonparvarlik, e’tiqodiy bag‘rikenglik hamda o‘zaro totuvlik tamoyillariga yo‘g‘rilgan irfoniy ta’limoti barcha xalqlar va madaniyatlar uchun birdek universal qimmatga ega.

Ayniqsa, bugungi kunda islom olamida murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlar kechayotgan bir paytda, turli aqidaviy ziddiyat va muammolarni bartaraf etishda o‘zaro hamjihatlik hamda bag‘rikenglik muhim omil hisoblanadi.

Ushbu ijtimoiy-mafkuraviy omillardan kelib chiqqan holda, diniy fundamentalizm hamda ekstremistik g‘oyalarning salbiy ta’siriga qarshi ma’rifiy-mafkuraviy immunitetni shakllantirish ustuvor vazifalardan biridir. Jaloliddin Rumiyning falsafiy-tasavvufiy merosida islom dinining tub mohiyati aynan ma’rifat, bag‘rikenglik hamda teran irfoniy tafakkurdan iborat ekani ilmiy va falsafiy jihatdan asoslab berilgan.

Mavlono Rumiyning jahonshumul e’tirofga sazovor bo‘lishi hamda barcha xalqlar uchun birdek qadrli hisoblanishining bosh sababi - u benazir shoir va zabardast mutafakkir bo‘lishi bilan birga, umuminsoniyatni jipslashtiruvchi muqaddas g‘oyalarni o‘z dunyoqarashining markaziy o‘rniga qo‘ya olganidadir. Mutafakkir iymon-e’tiqod, ilohiy ishq, ruhiy poklik, hurlik hamda komillik kabi tushunchalarni barcha uchun tushunarli va teran shaklda ifoda etib berdi. Rumiyning *“Yo‘llar har xil bo‘lishi mumkin, ammo yagona maqsad - Alloh ridosiga erishishdir”* degan hikmati insoniyatning Yaratuvchi huzuridagi tengligini hamda ma’naviy birligini teran ifodalaydi.

Jaloliddin Rumiyni bir millat, bir jamiyat yoki bir zamongagina taalluqli qilmay, uni hamma uchun va hamma zamonlar uchun qadrli aylagan asos ham shunda - hazratning sifat va alomatlarga emas, balki mohiyatga - insonning o‘zagiga e’tibor berganligi bilan izohlansa, ajabmas. Chunki zohir - tashqi ko‘rinishga qaralganda insonlar har xil, ularning mohiyati, ildizi, tabiati, ehtiyojlari, borar joyi esa... mushtarak. Shu sababli, inson qaysi millat, jamiyat yoki davrga mansub bo‘lishidan qat’i nazar, o‘zining ruhiy va ma’naviy kechinmalari teran hamda asosli aks ettirilgani bois Rumiy asarlari atrofida go‘yoki bir oila a’zolaridek jipslashadi.

Albatta, mutafakkir merosini anglash va idrok etish kitobxondan muayyan ma’naviy tayyorgarlik hamda yuqori ruhiy salohiyatni talab qiladi. Ya’ni, Rumiyni teran tushunish uchun insonda dastlab u yoqqan ma’rifat va ishq gulxanining kichik bir uchquni paydo bo‘lgan bo‘lishi lozim.

Mutasavvif uchun barcha dinu mazhab barobar. U jumla dunyoga, irqi, dini, millati, tabaqasidan qat’iy nazar, barcha insonlarga barobar murojaat qiladi. “Menga vahdat mayini tutgil, o‘zgalarni ham andin bahramand etgil, toki jamoat jam bo‘lib, faqat suvratda bo‘lmish tafovutlarni bartaraf etaylik. Biz hammamiz yagona og’ochning butoqlari, yagona qo‘shinning navkarlarimiz”.

Jaloliddin Rumiyning bashariyat birligi haqida gapirishi o‘sha davr uchun mislsiz jasorat edi. Shoir o‘z izdoshlaridan ham tuyg’u, ham tafakkurda ana shundoq jasorat talab qilardi [2].

Mavlono Jaloliddin Rumiy qalb va ko‘ngil olamining tengsiz kashshofidir. Mutafakkirning bashariyat tarixida o‘chmas iz qoldirgan eng yuksak fazilati - inson ruhiyatiga yo‘l topa olgani, ularning orzu-intilishlari hamda ichki kechinmalarini teran anglab, har bir iztirobli qalbga ma’naviy malham bo‘la olganidadir.

Mavlono Jaloliddin Rumiyning ijtimoiy-falsafiy ta’limotida bag‘rikenglik, xususan, e’tiqodiy bag‘rikenglik ma’naviy kamolotning oliy mezoni sifatida e’tirof etiladi. Mutasavvif o‘z qarashlarida tolerantlik hamda plyuralistik tamoyillarga asoslangan tinch-osoyishta hayot tarzini ilgari suradi. Ma’lumki, falsafa tarixi davomida «bag‘rikenglik» va «diniy bag‘rikenglik» tushunchalari yuzasidan ko‘plab ilmiy-falsafiy munozaralar olib borilgan hamda ularning ijtimoiy-huquqiy mohiyati atroflicha tadqiq qilingan.

Tasavvuf ta’limotida ham ushbu qadriyatlarga alohida e’tibor qaratilgan. Xususan, Rumiyning irfoniy dunyoqarashida bag‘rikenglik jamiyatda barqarorlik va

osoyishtalikni ta’minlovchi, insonlar o‘rtasida tenglik va millatlararo hamjihatlikni mustahkamlovchi muhim ijtimoiy omil sifatida talqin etiladi.

Jaloliddin Rumiyning falsafiy ta’limotiga ko‘ra, dunyodagi barcha dinlar va mazhablar bir - biridan farqlanadi, ammo ularning maqsadi bitta. Shuning uchun ham u: “Yo‘llar xilma - xil bo’lsa ham, maqsad birdir”, deydi mutasavvif. Odamlarning bir - birini tushunmasligi, birinchidan, ma’noga emas, balki nomlar, atamalar, tashqi ko‘rinishlarga qarab hukm qilishga, ikkinchidan, Xudoni sevish va Unga beg’araz, nafsu ta’madan xoli holda iymon keltirmasdan, balki manfaatlar yuzasidan munosabatda bo‘lish, aniqrog’i, Xudoni o‘zining g’arazli niyatlarini amalga oshirish uchun ro‘kach qilish, madadkor deb hisoblashdan kelib chiqadi [3].

Mavlono Jaloliddin Rumiyning ma’naviy merosi gultoji bo‘lmish «Masnaviyi ma’naviy» asarida keltirilgan bir timsoliy naql ushbu mohiyatni yorqin yoritib beradi. Unga ko‘ra, hunarmand tomonidan yasalgan kosaga har bir kishi turlicha yondashadi: biri uning ichki qismini, boshqasi sirtini, yana kimdir esa barcha tomonini tozalash kerakligini ta’kidlaydi. Biroq asosiy maqsad va mohiyat yagona - kosa sirtidagi chang va gardni suv yordamida poklashdan iborat. Xuddi shuningdek, dunyodagi barcha insonlar to‘kis hamda farovon umr kechirishga intiladi. Kimdir bu yo‘lda kuch va zo‘ravonlikni, boshqasi ilmni, yana kimdir esa behayolik yoki, aksincha, shukronalikni vosita deb biladi. Ammo barchasining zamiridagi bosh maqsad bir - to‘liq, farovon va munosib hayot kechirishdir.

Yer bag‘ridan unib chiqayotgan maysaning dastlabki maysalash davrida muayyan aniq shakli yoki ajralib turadigan ko‘rinishi bo‘lmaydi. Faqat o‘sib-ulg‘ayganidan keyingina u ko‘rkam yoki ko‘rimsiz, foydali yoki zararli kabi xususiyat va sifatlarga ega bo‘ladi. Shunga o‘xshash, barcha insonlar ham fitratan va jismonan bir xil imkoniyat hamda shaklda dunyoga keladi. Keyinchalik ular o‘z millati, turmush tarzi, an’analari hamda dili bilan bir-biridan farqlana boshlaydi.

Biroq, ularning tub intilishi va irodasi mushtarakdir: jamiki insoniyat erkin, tinch, farovon va baxtli yashashni hamisha birdek orzu qiladi.

So’zsiz Jaloliddin Rumiy buyuk shoir, ijtimoiy faol va diplomat inson. Ulug’ hind shoiri va mutafakkiri Muhammad Iqbol ta’biri bilan aytganda: “Bu dunyoni umidsizlikdan qutqarish va insoniyatni zavqu - shavqqa oshno etish uchun yana bir Rumiy kerak” [4]. Zero, Rumiydan uzoqlashgan kishi umidsizlikka tushadi, Rumiyni o‘qimagan inson xudbinlashadi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar:

1.Komilov N. Tafakkur karvonlari. - Toshkent: 2011. - B.190.

2.Radiy Fish. Jaloliddin Rumiy. - Toshkent: 1986. - B.240-241.

3.Jaloliddin Rumiy. “Masnaviyi ma’naviy”. Kulliyot. A.Mahkam tarj. - Toshkent: 1999. - B.8.

4.O‘zbek tili va adabiyoti jurnali, 2002 y. - № 6. - B.96.